



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI VETERINARIYA VA CHORVACHILIKNI
RIVOJLANTIRISH QO'MITASI**

**SAMARQAND DAVLAT VETERINARIYA MEDITSINASI,
CHORVACHILIK VA BIOTEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETI NUKUS
FILIALI**

**"VETERINARIYA MEDITSINASI VA CHORVACHILIKDAGI DOLZARB
MUAMMOLAR VA ULARNING YECHIMLARI" mavzusidagi xalqaro
ilmiy va ilmiy-texnik konferensiya materiallari**

TO'PLAMI

13-noyabr 2025-yil

СБОРНИК материалов

**международной научно и научно-технической конференции на тему
"АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ ВЕТЕРИНАРНОЙ МЕДИЦИНЫ И
ЖИВОТНОВОДСТВА И ИХ РЕШЕНИЯ"**

13 ноября, 2025 г

**International scientific and scientific-technical conference
"ACTUAL PROBLEMS OF VETERINARY MEDICINE AND LIVESTOCK
AND THEIR SOLUTIONS"**

November 13, 2025

NUKUS-2025

“Veterinariya meditsinasi va chorvachilikdagi dolzarb muammolar va ularning yechimlari”
Xalqaro ilmiy va ilmiy-texnik konferensiyasi materiallari [Matn]: to‘plam / Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Nukus filiali. – Nukus: “Golden Print Nukus” nashriyoti, 2025. – 389 b.

Anjuman tashkiliy qo‘mitasi

Tashkiliy qo‘mita raisi: Esimbetov Adilbay Tlepovich, b.f.d., professor;

Tashkiliy qo‘mita raisi muovini: Avezimbetov Shavkat Dosumbetovich, v.f.n.;

Tashkiliy qo‘mita kotibi: Rozumbetov Kenjabek Umar og‘li, b.f.f.d.;

D. Bazarbayeva – “Veterinariya diagnostikasi va oziq-ovqat xavfsizligi” kafedrasida katta o‘qituvchisi, biologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD).

Tashkiliy qo‘mita a‘zolari:

Sh. Jabbarov – O‘zbekiston Respublikasi Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo‘mitasi boshqarmasi boshlig‘i o‘rinbosari, veterinariya fanlari doktori, professor.

X. Yunusov – Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti rektori, biologiya fanlari doktori, professor.

M. Y. Karpuxin – Ural davlat agrar universitetining ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektori, agrar fanlar doktori, dotsent (Rossiya Federatsiyasi)

N. G. Malkov – N. F. Vereshagin nomidagi Vologda davlat sutchilik akademiyasi rektori, texnika fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya Federatsiyasi)

A. Abdurasulov – Qirg‘iziston Respublikasi O‘sh davlat universiteti “Veterinariya meditsinasi va biotexnologiyasi” kafedrasida mudiri, qishloq xo‘jalik fanlar doktori, professor. (Qirg‘iziston Respublikasi)

R. Miqtibayeva – Qozog‘iston milliy agrar tadqiqot universiteti “Mikrobiologiya va virusologiya” kafedrasida professori, veterinariya fanlari nomzodi. (Qozog‘iston Respublikasi)

S. Mirzakulov – Olmaota texnologiya universiteti “Oziq-ovqat mahsulotlari texnologiyasi” kafedrasida professori, qishloq xo‘jalik fanlar doktori, dotsent. (Qozog‘iston Respublikasi)

Q. Atanazarov – O‘quv ishlari bo‘yicha direktor o‘rinbosari, biologiya fanlari nomzodi, dotsent.

A. Mambetnazarov – Ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy-pedagog kadrlarni tayyorlash bo‘limi boshlig‘i, qishloq xo‘jalik fanlar doktori, dotsent.

A. Kaniyazov – “Veterinariya va zootexnologiya” fakulteti dekani, biologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD).

X. Mamatov – “Zootexnologiya” kafedrasida mudiri, qishloq xo‘jalik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD).

R. Turg‘anbayev – “Zootexnologiya” kafedrasida professori, agrar fanlar doktori

A. Kamalova – “Veterinariya meditsinasi va farmakologiyasi” kafedrasida mudiri, veterinariya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD).

P. Xojalepesov – “Iqtisodiyot va gumanitar fanlar” kafedrasida mudiri, iqtisod fanlari nomzodi, dotsent.

R. Rzaev – “Veterinariya diagnostikasi va oziq-ovqat xavfsizligi” kafedrasida mudiri, biologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent.

Ushbu to‘plam O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirining 2024-yil 27-dekabrda 490-son buyrug‘i bilan oliy ta‘lim tashkilotlari hamda ilmiy tashkilotlarda 2025-yilda o‘tkaziladigan xalqaro va respublika miqyosidagi ilmiy anjumanlar, simpoziumlar, seminarlar va boshqa ilmiy hamda ilmiy-texnik tadbirlar ro‘yxati 2-ilovasiga muvofiq tasdiqlangan – 2025-yilda xalqaro miqyosida o‘tkaziladigan ilmiy va ilmiy-texnik tadbirlar rejasi asosida Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Nukus filialida 2025-yil 13-noyabr kuni – **“Veterinariya meditsinasi va chorvachilikdagi dolzarb muammolar va ularning yechimlari”** mavzusida o‘tkazilgan Xalqaro ilmiy va ilmiy-texnik konferensiyasi materiallari asosida tuzilgan.

Konferensiyada, veterinariya sohasida faoliyat olib borayotgan universitet va filialarning professor-o‘qituvchilari, ilmiy markazlarning va insitutlarning ilmiy xodimlari, doktorantlar, magistrantlar, iqtidorli yosh tadqiqotchilarning ilmiy-tadqiqot ishlariga bag‘ishlangan maqolalar o‘rin olgan

To‘plamga kiritilgan maqolalar materiallarining to‘g‘riligi va haqqoniyligiga mualliflar mas‘ul hisoblanadi.

© Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Nukus filiali, 2025

© “Golden Print Nukus” nashriyoti, 2025

до берегов Каспия – краеугольный камень евразийских экосистем. *Каспийский журнал экологических наук*, 23 (4), 1101-1105.

9. Ниязов Х., Эрнazarов Д., Аvezимбетов С., Реджепбаев Дж. С. и Шакилов У. (2025). Различные методы лечения искусственного гнойно-некротического процесса у кроликов. В BIO Web of Conferences (том 181, стр. 01007). ЭДП наук.
10. Ernazarov, D. A. (2024, October). The Effect of 10% Blood Herb (Chistotel)(Chelidoii Herba) Ointment and 10% Aloe Extract Ointment on the Inflammation Process. In International Congress on Biological, Physical And Chemical Studies (ITALY) (Vol. 5, pp. 69-73).

ZOOFIL PASHSHALARGA QARSHI KURASHISH TADBIRLARI

(Adabiyot ma'lumotlari tahlili)

Ismoilov A.Sh., Aminova M.B.

*Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti
Nukus filiali*

Kirish. Respublikamizda chorvachilikni rivojlantirish, chorva mollarining mahsuldorligini oshirish hamda aholini sifatli va ekologik toza chorvachilik mahsulotlariga bo'lgan talabini qondirish uchun qoramollarda uchraydigan zoofil pashshalar bilan samarali kurashishning yangi chora-tadbirlar tizimini ishlab chiqish va soha amaliyotiga tadbiq yetish muhim vazifalardan hisoblanadi. Veterinariya fani va mutaxassislari oldida turgan eng dolzarb muammolardan biri chorva mollari orasida uchraydigan va xo'jaliklarga sezilarli iqtisodiy zarar yetkazadigan zoofil pashshalarga qarshi kurash chora-tadbirlarini ishlab chiqishni takomillashtirish hamda amaliyotga joriy etish sanaladi.

Pashshalarning chorva mollariga yetkazadigan zarari juda katta bo'lib, yaylov mavsumi davomida zoofil pashshalarning turli xil ekologik va taksonomik guruhlariga vaqti-vaqti bilan parazitlik qilib, bir-birini almashtirib, kun va mavsum davomida hayvonlarni doimo bezovta qilib turadi. Zoofil pashshalarining hayvonlarga hujum qilish natijasida ularning go'sht, sut, jun va boshqa mahsuldorligining pasayishiga olib keladi, tovuqlarda tuxum qo'yish kamayadi, bug'ularning teri xom ashyosi va shoxining sifati pasayadi.

Shuning uchun ham zoofil pashshalarning faunasini o'rganish, ko'payishini oldini olish va qarshi kurashish choralarini ishlab chiqish muhim ahamiyatga ega.

Mulkechilik shaklidan qat'i nazar chorvachilik xo'jaliklarida hayvonlarni yuqumli va invazion kasalliklardan asrash uchun bir qator veterinariya-sanitariya tadbirlarini o'tkazish zarurati tug'iladi. Amalga oshirilayotgan tadbirlar orasida parazit hasharotlar, xususan, zoofil pashshalarga qarshi kurash muhim o'rin tutadi. Ishlab chiqarishdagi sanitariya sharoitining yomonligi pashshalar ko'payishining asosiy manbai hisoblanadi.

Kimyoviy moddalardan foydalanish har xil turdagi ob'ektlar va hududlarda zoofil hasharotlarni nazorat qilishning nisbatan sodda va arzon usuli hisoblanadi, shuning bilan birga, dezinseksiya qilish uchun tavsiya etilgan preparatlarga talab ortib bormoqda. Insektitsidlar odamlar va qishloq xo'jaligi hayvonlari uchun past toksik tasirga ega bo'lishi va zararli hasharotlarga o'ldiruvchi tasir ko'rsatishi kerak. Yaylovlarda pashshalarga qarshi kurashning hozirgi bosqichida preparatni hayvonlarga purkash usuli eng maqbul usul hisoblanadi. Chorvachilik amaliyotiga past, o'rta va to'liq hajmda preparatlarni purkash usullari yordamida hayvonlarning junlariga sepish keng joriy etilgan. Hayvonlarni parazit zoofil hasharotlarga qarshi dezinseksiya qilish uchun hozirgi vaqtda sintetik piretroidlarga asoslangan insektitsid preparatlar eng samarali va xavfsiz hisoblanadi.

Laboratoriya va ishlab chiqarish sharoitidagi izlanishlarida pashshalarning lichinka va imago shakliga baygon preparatini 0,5 va 1 foizli, butoks preparatini 0,005 foizli konsentratsiya eritmalari eng samarali ekanligi aniqlangan. Preparat qo'llanilgandan so'ng 1,5 oy o'tgach

pashshalar populyatsiyalari qayta tiklana boshlaydi. Yoz va kuzda fermer xo'jaliklari va go'ng omborlari hududini to'rt marta dezinseksiyadan so'ng zoofil pashshalar keltirib chiqaradigan stress va chaqishlarni kamaytirish orqali sog'in sigirdan 91 litrgacha qo'shimcha sut olish imkonini bergan.

Hayvonlarni gnus va boshqa zararli artropodalarining barcha tarkibiy qismlaridan himoya qilish choralari keng tarqalgan va mavjud, masalan, insektitsidlarning suvli emulsiyalari bilan teri yuzasiga purkash orqali tizimli davolash chorasi qo'llaniladi. Bundan tashqari, yog'li eritmalarni shamol esgan tomondan tuman hosil bo'lganga qadar piretroidlar bilan ultra kam hajmda yuqoridan purkash usuli istiqbolli hisoblanadi. Ushbu moddalarning ta'siri ostida hasharotlar nobud bo'ladi va ishlov berilgan hayvonlar podalari yaqinida ularning soni kamayadi. Insektitsidlar bilan muntazam davolash hayvonlarni qon so'ruvchi hasharotlar, so'na imagolari va zoofil pashshalardan himoya qiladi hamda hayvonlarni boshqa ektoparazitlardan hujumidan saqlaydi.

Qoramollarning zararli ektoparazitlari - hasharotlar qarshi kompleks nazoratni turli shakllardagi insektitsidlar yordamida amalga oshiriladi. Keng tarqalgan shakllarga kukunli preparatlar, emulsiya qiluvchi konsentratlar, suspenziyalar, aërozollar, qopqonlar va gellar kiradi. Insektitsidlarni tanlash, ularni qo'llash shakllari, davolash chastotasi, qo'llash tezligi chorvachilik binolaridagi sharoitlar bilan belgilanadi. Hayvonlarni hasharotlar va kanallardan himoya qilishning samarali usuli ularni kimyoviy moddalar va maxsus purkagich uskunalari yordamida yo'q qilishdir.

Hozirgi vaqtda ektoparazitlarga qarshi kurashda insektitsid vositalarining turli kombinatsiyalarini topish eng istiqbolli sanaladi. Jumladan, chorvachilik binolarida pashshalarga qarshi kurashning integratsiyalangan boshqarish tizimini ishlab chiqishda qarshi kurash sxemalarini tuzish yoki turli xil tasir mexanizmlariga ega bo'lgan preparatlarni ketma-ket qo'llash, insektitsidlarni qo'llash usulini tanlash, noan'anaviy usullardan foydalanish muhimdir.

Xulosa. Chorvachilik xo'jaliklarida va aholi xonadonlaridagi qoramollar zoofil pashshalarining faunasi, tarqalishini o'rganish hamda ularga qarshi samarali insektitsid vositalari bilan kurash tadbirlarini olib borish muhim vazifalardan hisoblanadi.

Kelgusida zoofil pashshalarga qarshi o'simlik asosli insektitsid preparatlarni veterinariya amaliyotida rejali va sifatli qo'llanilishi mamlakatimiz aholisini sifatli chorvachilik mahsulotlari bilan ta'minlash, bioekologik, sanitariya-epidemiologik, epizootologik vaziyatni yanada yaxshilash imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Бабаханян Р.В., Бушуев Е.С., Левина Т.М., Петрова Г.М., Трамова В.Н. Химико - токсикологические аспекты отравлений синтетическими пиретроидами / Ученые записки СП ГМУ им. Академика И.П. Бруллова. - 2001. - Т.8. - №4. - С. 102- 106.
2. Жданова О.Б. Токсокароз домашних и диких плотоядных в Кировской области // Мат. докл. к науч. конф. «Современные проблемы ветеринарной медицины» -2004. - С. 34-37.
3. Павлов, С.Д., Сивков Г.С., Павлова Р.П., Домацкий В.Н., Белецкая Н.И., Хлызова Т.А., Федорова О.А., Гавричкин А.А., Лецев М.В., Никонов А.А., Латкин С.В. Защита крупного рогатого скота и северных оленей от гнуса и оводов в Тюменской области: методические указания. Тюмень: ООО «Экстро», 2010. С. -59.
4. Рагимханова Ф.К. Фауна, биология, экология зоофильных мух в горном Дагестане и меры борьбы с ними: дис. канд. биол. наук:– М., 2009. С. – 161.
5. Рославцева С.А. Опасность формирования резистентности, к инсектоакарицидам у переносчиков, возбудителей инфекционных заболеваний//Дездело.-2008. -№2.-С. 52-56.
6. Stein von R.T., Soderlund D.M. /Role of the local anesthetic receptor in the state-dependent inhibition of voltage-gated sodium channels by the insecticide metaflumizone/ Mol. Pharmacol., 81 (2012), P.- 366–374.

7. Хакимов З., Уринов У., Саидова М., Нарманов О., Эрназаров Д., Ходжаева З., ... и Очилов Ю. (2025). Биоразнообразие насекомых в Узбекистане: от обширных степей до берегов Каспия – краеугольный камень евразийских экосистем. *Каспийский журнал экологических наук*, 23 (4), 1101-1105.
8. Ниязов Х., Эрназаров Д., Аvezимбетов С., Реджепбаев Дж. С. и Шакилов У. (2025). Различные методы лечения искусственного гнойно-некротического процесса у кроликов. В *BIO Web of Conferences* (том 181, стр. 01007). ЭДП наук.
9. Ernazarov, D. A. (2024, October). The Effect of 10% Blood Herb (Chistotel)(Chelidoni Herba) Ointment and 10% Aloe Extract Ointment on the Inflammation Process. In *International Congress on Biological, Physical And Chemical Studies (ITALY)* (Vol. 5, pp. 69-73).

QORAMOLLAR TELYAZIOZI

(Adabiyot ma'lumotlari tahlili)

Ismoilov A.Sh., Tajimuratov K.O.

*Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti
Nukus filiali*

Kirish. Telyazioz - zoonoz (insonga ham yuqishi mumkin) tabiatga ega bo'lgan nematodoz kasallik bo'lib, ko'zning shilliq pardasi yallig'lanishi (kon'yunktivit), ko'z yoshining oqishi, ko'z soqqasining quruqligi, shaffofligi yo'qolishi va yaralanishi bilan namoyon bo'ladi. Bu holat hayvonlarda holsizlik, mahsuldorlikning pasayishi, hatto ko'rish qobiliyatining yo'qolishiga olib keladi.

Yirik shoxli mollarning parazitlar kasalliklari ayniqsa sanoat turidagi xo'jaliklarga juda katta iqtisodiy zarar yetkazadi. Bu borada yetakchi etiologik rolni *Spirurata* turkumiga mansub bo'lgan nematodalar o'ynaydi. Ular orasida alohida o'rin tutadigan kasallik — telyazioz bo'lib, uning qo'zg'atuvchilari rivojlanishida oraliq xo'jayinlar ishtirok etadi.

Ushbu gelmintozlarga qarshi kurashning eng samarali usuli — bu profilaktika bo'lib, u epizootik vaziyatni chuqur o'rganishga asoslanadi. Bu holat esa o'z navbatida tabiiy-iqlimiy sharoitlarga bog'liq.

Telyaziozning oraliq xo'jayinlariga qarshi kurash doimiy ravishda profilaktik va yo'q qilish choralari orqali olib borilishi lozim. Har xil turdagi hayvonlarga moyil pashshalarning sonini tartibga solishda bu choralar har xil darajada ahamiyatga ega. Masalan, profilaktik tadbirlar pashshalar bilan kurashishda yopiq binolarda eng yuqori samaradorlikka ega bo'lsa, yo'q qilish choralari yaylovlarda samaraliroq bo'ladi.

Mamlakatda chorvachilikni tez sur'atlar bilan rivojlantirish maqsadida, chet eldan naslli sigirlar olib kirilishi qisqa muddat ichida nafaqat qoramol bosh sonini tiklashga, balki ularning genetik sifatini yaxshilashga ham imkon berdi. Biroq, yangi sharoitlarga tushgan hayvonlar bu o'zgarishlarga juda sezgir bo'lib, turli kasalliklarga nisbatan ko'proq moyil bo'lib qolishdi.

Hayvonlarning genetik salohiyatini saqlab qolish, qishloq xo'jalik ishlab chiqarishining iqtisodiy ko'rsatkichlarini oshirish maqsadida, hududdagi iqlim xususiyatlari va invazion kasalliklar bo'yicha noqulay epidemiologik vaziyatni inobatga olgan holda, parazitlarga qarshi chora-tadbirlarning integratsiyalashgan tizimi ishlab chiqildi. Ushbu tizim ayniqsa go'sht yo'nalishidagi qoramolchilikda maksimal natijalarga erishish imkonini berdi.

Hududda uchraydigan parazitlar kasalliklar turli guruhlariga mansub bo'lsa-da, ularning orasida asosiy o'rinni gelmintozlar egallaydi. Bu guruh vakillaridan biri — yirik qoramollarda uchraydigan telyazioz kasalligidir.

Telyazioz kasalligiga qarshi davolash choralari ko'rilmasa, qoramollarning go'sht va sut mahsuldorligi keskin kamayadi. Kasallikka chalingan hayvonlar uzoq vaqtga qadar yarim ko'r